

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

ISMATULLAYEVA SANGINA RAVSHAN QIZI

**MAXSUS SIMULYATSIYA TRENAJYORIDA DZYUDOCHI QIZLARNING
TEXNIK VA TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI ASIMMETRIYASINI
TAHLIL QILISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление докторской диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Ismatullayeva Sangina Ravshanovna

Maxsus simulyatsiya trenajyorida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilish..... 3

Исматуллаева Сангина Равшановна

Анализ асимметрии технической и скоростно-силовой подготовки девушек-дзюдоисток на специальном имитационном тренажере..... 33

Ismatullayeva Sangina Ravshanovna

Analysis of the asymmetry of technical and speed-strength training of female judokas on a special simulation simulator..... 67

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 71

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

ISMATULLAYEVA SANGINA RAVSHANOVNA

**MAXSUS SIMULYATSIYA TRENAJYORIDA DZYUDOCHI QIZLARNING
TEXNIK VA TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI ASIMMETRIYASINI
TAHLIL QILISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PHD/Ped6740 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzdjsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Adilov Sarvar Qaxramonovich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Dadabayev Odiljon Jalolidinovich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Aliyev Iskandar Baxromovich

Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: jtsu@uzdjsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Madaniyat saroyi" 2-qavat kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Disseratsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dzyudo sport turi davlatlar va dzyudochi qizlar orasidagi kuchli raqobat sababli faol rivojlanib, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadigan davlatlar orasida tobora ommalashib kelmoqda. Jahon dzyudo sport turida dzyudochi qizlar raqobatining keskin kuchayishi mazkur sport turida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish yo'llarini izlab topish talabini qo'yimoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlarida dzyudo sport turi bo'yicha dzyudochi qizlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuqori sport natijalarining o'sib borishida asosiy omillardan biri sifatida tayyorgarlik strategiyasini ishlab chiqish hamda uni tizimli boshqarishga qaratmoqda. Dzyudo sport turi industriyasida ilg'or uslublar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish orqali sport ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida dzyudochi qizlarni musobaqalarga maqsadli tayyorlash kabi vazifalarni hal etish masalasi talab etilmoqda.

Jahon dzyudo sportida musobaqalarni kuzatish hamda tahlil qilish natijasida yetuk tajriba natijasini o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiq etish maqsadida olib borilgan dzyudochi qizlarning tezkor-kuch, texnik, psixologik va funksional tayyorgarliklariga yo'naltirilmoqda. Shu bilan birgalikda, dzyudo sport turi kurashida natijalarni oshiradigan samaradorlik uslublariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Sport mashg'ulotlarida zamonaviy usullar va ilg'or texnologiyalardan foydalanish dzyudo sportida tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasi muammosini izchil o'rganishga imkon bermoqda. Dzyudo kurashida malakali dzyudochi qizlar uchun ko'p yillik tayyorgarlik sikllaridagi mashg'ulotlar yuklamasi tizimining optimal variantlarini ishlab chiqish hamda ularni ilmiy-nazariy asoslash shu bilan birga me'yorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, dzyudo sportida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini takomillashtirishda maxsus mashqlar tizimiga asoslangan yuqori shiddatda tezkor-kuch qobiliyatini talab etadigan texnik hujum harakatlariga o'rgatish uslubiyatini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish, xalqaro maydonda kuchli raqobatbardosh, yuqori malakali dzyudochi qizlarni tarbiyalash va ilmiy-amaliy salohiyatga ega yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirish, davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Mamlakatimizda maqsadli islohotlar olib borilayotganligi tufayli jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish"¹ kabi vazifalari belgilab berilgan. Dzyudochi qizlarning musobaqalarga tayyorgarlik jarayonini tahlil qilish va sportchilarning individual xususiyatlariga oid uslublarni tanlash, o'quv-mashg'ulot dasturlarini belgilashda vositalarni to'g'ri qo'llash, dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini maxsus simulyatsiya trenajyorida tahlil qilish, jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini maxsus sport uskunalaridan foydalanish yo'li bilan tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bundan tashqari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

o'quv-mashg'ulot dasturlarini optimallashtirish, dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini tezkor tahlil qilish, malakali dzyudochi qizlarning jismoniy, texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilishda maxsus sport jihozlaridan foydalanish uchun ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Shu o'rinda, mazkur o'tkazilgan tadqiqot ishlarida musobaqa faoliyati tahlili asosida maxsus trenajyordan foydalangan holda dzyudochi-qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilish bo'yicha pedagogik kuzatishlar bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3196-sonli "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida", 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-sonli "Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", qarorlari mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlarga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda mamlakatimizda dzyudo va boshqa sport kurashi turlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish hamda tahlil qilish jarayonida kurashchilarning texnik-taktik va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish hamda ularni o'quv-mashg'ulotlari jarayonida yangicha ilmiy-nazariy yondashish muammolari qator mualliflarning ilmiy-uslubiy ishlarida berilgan. Respublikamiz olimlari A.N.Abdiyev, N.N.Azizov, Z.A.Bakiev, L.P.Yugay, J.M.Ishtayev, F.A.Kerimov, O.J.Dadabayev, K.N.Murodov, S.E.Qodirov, S.Q.Adilov, I.B.Aliyev, D.Y.Tashnazarov, Sh.Sh.Gaziyevlar o'zlarining ilmiy-uslubiy va ilmiy tadqiqotlariga asosan sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimini nazorat qilishga qaratilgan zamonaviy mezonlar takomillashtirilgan.²

² Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дис., - Тошкент, ЎзДЖТИ, 2004. – 196 б.; Azizov N.N. Malakali dzyudochilarning maxsus va musobaqa oldi tayyorgarligini shakllantirish: Ped. fan. nom. ... diss. - Toшkent, 2007. – 143 б.; Bakiev Z.A. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов, на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности: Дис. ... канд. пед. наук: - Ташкент: УзГИФК, 2009. – 131 с.; Югай Л.П. Дзюдо. Программа для детско-юношеских школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. Учебное пособие // Т; илмий техника ахбороти-пресс нашриёти, 2017. – 152 с.; Иштаев Ж.М. Тезкор-куч спорт турларида спортчиларнинг портловчи куч харакат қобилиятларини такомиллаштириш: Пед. фан. док. ... дис. (DSc), - Тошкент: 2017. – 75 б.; Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar / Darslik. Toshkent, "ZAR QALAM", 2018. – 348-b.; O.J.Dadaboyev. dzyudochilarning ko'p yillik tayyorgarligi konsepsiyasini nazariy asoslash: Ped. fan. dok. ... diss (DSc), - Ch.: 2021. – 218 б.; K.N.Murodov. Эркин курашда махсус тренажёрлар ва машқлардан фойдаланиш асосида курашчиларнинг куч чидамлилигини ривожлантириш технологияси: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори: ... diss. - Чирчик: ЎзДЖТСУ, 2022. – Б. 95-110.; S.E.Qodirov. Malakali dzyudochilarning kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini

Mustaqil davlatlar hamdo'stiligi mamlakatlari yetakchi olimlari ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish natijasida G.S.Tumanyan, V.Yu.Verxoshanskiy, A.I.Tkachenko, Yu.V.Muxanov, N.A.Fedyayev, V.I.Lyax, o'zlarining ilmiy-uslubiy ishlarida sportchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy nazariy va amaliy tavsiyalarini berishgan.³

Shu bilan birga xorijiy olimlarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish natijasida sportchilarda tezkor-kuch asimmetriyasini tahlil qilish hamda rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga mualliflarning ta'kidlashicha kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligida mashg'ulot vositalari va yuklamalarini to'g'ri qo'llash to'g'risida bir qator mualliflarning ishlarida ta'kidlangan. Jumladan, D.Sale, G.Wang, H.Liou, P.Liou, W.Pulkinen, L.Monteiro, De.Cree, L.Jones, M.Baić, N.Trajković, D.Djordjevic, M.Stankovic, D.Pekaslarning ilmiy-uslubiy ishlarida berilgan.⁴

Ushbu sohadagi katta ilmiy-uslubiy tajriba to'planganligini e'tiborga olib, dzyudochi qizlarning texnik tayyorgarligi samaradorligini oshirish va tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha uyg'unlikdagi vazifalar yechimi yuqori samaradorlikka olib kelishi aniqlandi. Bugungi kunda kurashchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlarini o'rganish asosida dzyudochi qizlarning texnik tayyorgarligi samaradorligini oshirish va tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini oshirish bo'yicha uyg'unlikda o'tkazilgan tadqiqotlarning yo'qligi aniqlandi. Mazkur yondashuv musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonlarini oqilona boshqarishga yordam beradi, chunki jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bir-biriga ta'sir qilish kattaligini bog'lab turuvchi ko'rsatkichlarni baholab turish sportchilar mahorati va sport natijalarini ko'tarishida katta samara beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

rivojlantirish. // Monografiya. Toshkent 2023. - B. 50-64.; S.Q.Adilov. Intellektual sensor tizimlaridan foydalangan holda sport kurashida koordinatsion va texnik-taktik harakatlari integratsiyasi: Ped. fan. dok. ... dis. (DSc), - Chirchiq: O'zDJTSU, 2024. - B. 35-55.; Алиев И.Б. Кураш билан шуғуланувчи талаба спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари: пед. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент: ЎзДЖТИ, 2012. - Б. 19-28.; Ташназаров Дж. Ю. Бошланғич гуруҳ юнон-рум курашчиларини техник усулларга ўргатишда моделлаштиришнинг самарадорлигини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ... дис. (PhD), - Чирчик. ЎзДЖТСУ, 2021. - 186 б.; Sh.Sh.Gaziyev. Yuqori malakali sambochilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimining ilmiy-nazariy asoslari: ped. fan. dok. ... dis. (DSc), - Chirchiq. O'zDJTSU, 2024. - 180 b.

³ Туманян Г.С. Теория, методика, организация тренировочной, вне тренировочной и соревновательной деятельности. - М.: Сов. спорт. Ч. 3. 2001. - 77 с.; Верхошанский В.Ю. Основы специальной силовой подготовки в спорте: Учебник./: "Советский спорт" - Москва: 2013. - С. 156-161.; Ткаченко А.И., Муханов Ю.В. Особенности развития скоростно-силовых качеств в спортивной борьбе // Совершенствование физической, огневой и тактико специальной подготовки: сб. ст. Орел: ОЮИ, 2015. - 95 с.; Федяев Н.А. Формирование арсенала индивидуальных технических действий юных дзюдоистов: монография // - М.: МЭСХ, 2019. - 162 с.; Лях В.И. Скоростно-силовая подготовка квалифицированных волейболистов в подготовительном периоде на основе модульной технологии: Автореф. Дис. ... канд. пед. наук. ВАК РФ, 13.00.04, 2019. -137 с.

⁴ Sale D.G. Testing Strength and Power // The Physiological Testing of the High-Performance Athlete. Champaign, IL.: Human Kinetics Publishers. 1991. - №12. - pp. 36-39.; Wang, G., Liou, H., & Liou, P. Biomechanical analysis of hold-throw technique in elite wrestler. In Y.Hong, D.Johns, R.Sanders (Eds.), Proceedings of 18th International Symposium on Biomechanics in Sports Hong Kong, China: International Society of Biomechanics and Sports. (2000). - pp. 312-313.; Pulkinen W. J. The sport science of elite judo athletes, Pulkinetics Inc., (2001). - 93 pp.; Monteiro L.F. Structure et Cont Energetiques des Combats de Judo //Poster presentations judo Conference, - Munich, Germany. 2001. - pp. 24-25.; De Cree C, Jones LC: Kodokan Judo's Elusive Tenth Kata: The Go-no-kata - "Forms of Proper Use of Force" - Part 1. Arch Budo, 2009. 5: - pp. 55-73.; Baić M, Trajković N, Djordjevic D, Stankovic M, Pekas D. Strength profile in wrestlers-a systematic review. Archives of Budo 18. - Chicago, 2022. - pp. 151-164.

tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining 34.2-bandi: "Sport ta'lim muassasalari kurash mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mashg'ulot jarayonida maxsus simulyatsiya trenajyori yordamida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch ko'rsatkichlari asimmetriyasini baholash hamda musobaqa natijadorligining potensialini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dzyudochi qizlar mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch tayyorgarligini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga mo'ljallangan sport uskunalaridan foydalanish orqali musobaqa natijadorligini oshirish;

dzyudochi qizlar mashg'ulot jarayonida maxsus simulyatsiya trenajyoridan foydalangan holda sportchilarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil etish;

dzyudochi qizlarning o'quv-mashg'ulot jarayonida texnik tezkor-kuch hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

musobaqa taqvim rejasidan kelib chiqib dzyudochi qizlarning yillik mashg'ulot jarayonini optimallashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida malakali dzyudochi qizlarning texnik harakatlarini takomillashtirish va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini maxsus simulyatsiya trenajyori orqali nazorat qilishga yo'naltirilgan musobaqa va mashg'ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti malakali dzyudochi qizlarning o'quv-mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch qobiliyatlarini hamda musobaqa bellashuvlaridagi texnik tayyorgarligi asimmetriyasini baholash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlardagi ma'lumotlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, anketa so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash, pulsometriya, pedagogik testlar, pedagogik tajriba va matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malakali dzyudochi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligini aniqlash hamda rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan sport trenajyorida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo'llash yordamida mashg'ulot (yillik oylik va haftalik) dasturlariga o'zgartirish hisobiga tezkor-kuch, jismoniy tayyorgarlik darajasi oshirilgan;

malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch harakatlari samaradorligini oshirish maqsadida ilk bor yaratilgan maxsus simulyatsiya trenajyorida bellashuvlar jarayoniga yaqinlashtirilgan mashqlar majmuasidan tashkil topgan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida foydalanish hisobiga texnik harakatlarni natijadorligi oshirilgan;

dzyudochi qizlarning o'quv-mashg'ulot hamda musobaqa faoliyatida Nage-waza va Ne-waza holatidagi murakkab vaziyatlarni inobatga olib mashg'ulot davomida texnik harakatlar hamda tezkor-kuch tayyorgarlik nisbatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini ketma-ketlikda qo'llash hisobiga texnik va tezkor-kuch imkoniyatlari samaradorligini oshirish mezonlari takomillashtirilgan;

dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirirish maqsadida sportchi qizlarning yillik va haftalik mashg'ulot yuklamalari hamda tiklanish vositalari bo'yicha majmuaviy nazorat qilish yordamida mashg'ulotlarni samarali tuzish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini maxsus "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajyori orqali rivojlantirish asosida asimmetrik tahlil qilish bo'yicha instrumental usul ishlab chiqilgan;

dzyudochi-qizlarning jismoniy tayyorgarligini hamda kuch tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasining samaradorligi pedagogik tajribada isbotlanib, ilmiy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

dzyudo sport turining asosiy texnik usullarini bajarish hamda tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish uchun yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etishda maxsus trenajyorlar va mashqlardan foydalanish majmuasi ishlab chiqilgan hamda amaliyotda qo'llash samarali ekanligi aniqlangan;

dzyudochi-qizlarning tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari uchun yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini tuzish va optimal nisbatlarini baholash metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining obyektivligi va ishonchliligi o'tkazilgan pedagogik tajriba va innovatsion uslublar ishlab chiqilganligi, ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanishi, qo'llanilgan tadqiqot uslublari majmuasi tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos kelishi, katta hajmdagi daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, malakali dzyudochi qizlarni tayyorlashni kompleks nazorat qilish asosida texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini ishlab chiqish orqali natijalarning ahamiyati pedagogik eksperimentda dzyudochi qizlarni tayyorlashni maqsadli takomillashtirishning yangi vositalar va dasturlardan foydalangan holda, shuningdek ularni qo'llash samaradorligini aniqlashda sinovdan o'tkazildi hamda sport mashg'ulotlari bosqichlarini rejalashtirishda murabbiy va sportchi o'rtasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish darajasini oshirish uchun o'quv-mashg'ulot jarayonini boshqarish operativ nazorat tizimini qo'llash muhim ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi assimetriyasini tahlil qilishda maxsus "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajyori va "ZK" sport uskunalarning ixtiro qilinishi hamda amaliyotda olingan ma'lumotlar dzyudo sport turida rejali mashg'ulotlar asosida musobaqa faoliyatiga tayyorlashning turli bosqichlarida musobaqa qoidalarining o'zgarishini e'tiborga olgan holda texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodikasi ishlab chiqildi va jismoniy sifatlarni yaxshilash orqali, ularning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish imkoniyati yaratilib, dzyudo sport turi bo'yicha ishlab chiqilgan tamoyillar boshqa kurash turlariga

ixtisoslashuvchi sport ta'lim muassasalari va O'zbekiston milliy terma jamoasi dzyudochi qizlarining mashg'ulotlari jarayonida mutaxassislar tomonidan foydalanilganligi qator yangiliklarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dzyudochi-qizlarning mashg'ulotlar jarayonida texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi assimetriyasini tahlil qilish bo'yicha o'tkazilgan uslubiyat, tajriba va tadqiqot natijalari asosida:

malakali dzyudochi qizlarning tezkor kuch tayyorgarligini aniqlash hamda rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan sport trenajorida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo'llash yordamida mashg'ulot (yillik oylik va haftalik) dasturlariga o'zgartirish hisobiga tezkor-kuch, jismoniy tayyorgarlik darajasi natijalari O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston sport vazirligining 2024-yil 2-oktabrdagi buyrug'iga asosan 03-16/9728-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Xalqaro musobaqalarda 1 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza; O'zbekiston chempionatlarida esa 1 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritishgan;

dzyudo kurashida sportchi qizlarning texnik hujum harakatlari va tezkor-kuch tayyorgarligi samaradorligini oshirish maqsadida kurashning asosiy texnik usullarini bajarish hamda bellashuvlar jarayoniga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etishda maxsus "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajori orqali sportchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulotlarida foydalanish hisobiga texnik harakatlarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent viloyati Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi sportchi qizlarining mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston sport vazirligining 2024-yil 2-oktabrdagi buyrug'iga asosan 03-16/9728-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maxsus simulyatsiya trenajorida bajariladigan mashqlarni qo'llash hisobiga maxsus jismoniy tayyorgarligi 12% ga yaxshilangan;

dzyudochi qizlarning o'quv-mashg'ulot hamda musobaqa faoliyatida Nage-waza va Ne-waza holatidagi murakkab vaziyatlarni inobatga olib mashg'ulot davomida texnik harakatlar hamda tezkor-kuch tayyorgarlik nisbatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. ishlab chiqilgan vosita va uslublar bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston dzyudo federatsiyasi dzyudochi qizlarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston sport vazirligining 2024-yil 2-oktabrdagi buyrug'iga asosan 03-16/9728-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sportchilarning yakkalikda hamda juftlikda bajariladigan maxsus mashqlarni qo'llash hisobiga jismoniy tayyorgarligi 15% ga yaxshilangan;

dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish maqsadida sportchi qizlarning yillik va haftalik mashg'ulot yuklamalari hamda tiklanish vositalari bo'yicha majmuaviy nazorat qilish yordamida mashg'ulotlarni samarali tuzish metodikasi natijalari bo'yicha taklif hamda tavsiyalar "Теория и методика дзюдо" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston sport vazirligining 2024-yil 2-oktabrdagi buyrug'iga asosan 03-16/9728-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dzyudochi qizlarning musobaqa taqvim rejasi bo'yicha texnik harakatlar va tezkor-kuch qobiliyatlari tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan haftalik dasturlar yordamida bellashuv potentsiali samarali 18% ga optimallashtirildi hamda sportchi

qizlarning murakkab texnik usullarining asimmetriyasi tahlili pedagogik tajribadan ko'zlangan maqsadga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, 1 ta ixtiro, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (1 ta xorijiy, 2 ta respublika ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 137 ta sahifalik matnida bayon etilgan bo'lib, kirish, 4 ta bob, 7 ta rasm, 25 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarning sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarining aprobasiyasi, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida to'laligicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Dzyudochi qizlarning texnik harakatlar va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish muammolariga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili hamda metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida dzyudochi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish asoslari, dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirish asoslariga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali yoritib berilgan.

Dzyudochi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi yuqori natijalarga erishish uchun zarur poydevor hisoblanadi. Shuningdek, dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilishning ilmiy-nazariy asoslari har qanday kurashchi uchun juda muhimdir. Dzyudochi qizlar o'rtasida tezkor-kuch qobiliyati namoyon bo'lishining asosiy xususiyatlari hujum va himoya harakatlarining keskin almashinishi bilan bog'liq. Dzyudochi qizlar orasida kuchayib borayotgan raqobat sababli, mashg'ulotlar tizimini takomillashtirish, shu bilan birga, kurashchi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligi darajasini oshirish uchun zaxiralarni izlashni talab qiladi. Dzyudochi qizlarning potensial imkoniyatlarini doimiy izlash va tezkor-kuch tayyorgarligi sohasida mahalliy hamda jahon tajribasini umumlashtirish, mashg'ulotlarning turli bosqichlarida texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish yordamida raqibning sezilarli tezkor-kuch qarshiligida yuqori hamda samarali asimmetrik texnik hujum harakatlarini amalga oshirishning ilmiy asoslangan asosiy tayyorgarlik vazifalari mazmuni va usullari ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan

(V.P.Platonov, M.M.Larkin, S.V.Yeregina, I.D.Akopyan, V.M.Lebedev, K.D.Chermit).

Adabiyot hamda mavjud manbalar tahlili natijasiga ko'ra, sport amaliyotida, ayniqsa hozirda maxsus uskunalar asosida qo'llanilayotgan texnologiyalar standart uslublardan iborat bo'lib, dzyudochi qizlarda texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil etishda nafaqat pedagogik kuzatuvdan foydalangan holda amalga oshirishning to'liq imkoni cheklanganligi bilan birgalikda, mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi va tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmaganligi ochib berilgan. Shu tufayli, dzyudochi qizlarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va olingan ko'nikmalardan murabbiylar va mutaxassislar amaliyotida foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va uni tashkillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pulsometriya, tadqiqotni amalga oshirish bo'yicha pedagogik tajribalar, tadqiqotni tashkil qilinishi, olingan materiallarni qayta ishlash bo'yicha matematik statistika usullaridan foydalanilganligi hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus **“ASIS WRESTLING”** va sport uskunalari, instrumental usul hamda maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Ilmiy-tadqiqot izlanishlari 2022-2024 yillar davomida amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida sportchi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy xususiyatlari o'rganildi hamda tadqiqotning yo'nalishi belgilandi. Tadqiqotning mavzusi shakllantirildi. Amalga oshiriladigan tajribalarga muvofiq usullar tanlandi, ishchi faraz shakllantirildi. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilandi, dastlabki materiallar to'plandi. Dzyudochi qizlarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatini tezkor tahlil va nazorat qilish uslubiyati belgilandi. Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirishga mo'ljallangan **“ASIS WRESTLING”** sport uskunasi hamda shu maqsadda dzyudochi qizlarning tatamida bajariladigan maxsus mashqlar majmualari, shu qatorda ularni amaliyotga joriy etish orqali tayyorgarlik bosqichini maqsadli takomillashtirish dasturi ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dzyudochi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasini tajriba-sinovlarda qo'llash orqali dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyatini ishonchli ko'rsatkichlari hamda texnik-taktik darajasi, texnik va jismoniy tayyorgarligi darajasi aniqlandi. Maxsus ishlab chiqilgan **“ASIS WRESTLING”** sport uskunasi va sport uskunalarning maxsus mashqlar majmuasining samaradorligini aniqlash bo'yicha dzyudochi qizlar bilan o'tkazilgan pedagogik tajribalar batafsil yoritilgan.

Uchinchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlariga 12 nafardan shug'ullanish tajribasi 8 yildan kam bo'lmagan dzyudochi qizlar jalb qilindi. Dzyudochi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik harakatlarini takomillashtirish samaradorligiga yo'naltirilgan, maxsus ishlab chiqilgan **“ASIS WRESTLING”** simulyatsiya trenajyori hamda sport uskunasi va tatamida bajariladigan mashqlar

majmuasining ta'siri pedagogik tajribalarda aniqlandi. Tezkor-kuch qobiliyatlarini va texnik harakatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotlarining yuklamalari optimallashtirildi. Ushbu maqsadda ishlab chiqilgan texnologiyaning samaradorligi tajriba-sinovlarda o'z aksini topdi. O'zDJTSU, O'zbekiston dzyudo federatsiyasi ayollar terma jamoasi va Toshkent viloyati yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi bazasida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi asimmetriyasini aniqlash hamda nazorat testlari yordamida uslubiyat samaradorligi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning **“Dzyudo sport turi bilan shug‘ullanuvchi dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil etishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot jarayonining tuzilish uslubiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi “ASIS WRESTLING” va sport uskunalari ishlab chiqilganligi yoritiladi. Mazkur sport uskunalari dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan asosiy mashg‘ulotlar vositasi hisoblanadi. Respublika va Xalqaro turnirlarga tayyorgarlik bosqichida malakali dzyudochi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini optimallashtirilgan dasturlar va pedagogik tajriba-sinovlarda qo‘llanilgan nazorat testlari samaradorligi, malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasiga qaratilgan omillarni aniqlash maqsadida tajribali murabbiylar va sportchilar o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalari hamda tadqiqot yuzasidan tahliliy materiallar yoritilgan.




1-rasm. Anketa so‘rovnoma natijalari.

Tadqiqot oldida turgan maqsad va vazifalarni yanada takkomillashtirish va tadqiqotni samarali tashkil qilinishi uchun adabiyotlar, manbalar tahlili bilan birgalikda dzyudo sport turida uzoq yillardan buyon murabbiylik vazifasini olib borayotgan 35 nafar tajribali murabbiylar orasida anketa-so‘rovnomalari o‘tkazilib, savollarga kerakli javoblar olindi va so‘rovnoma natijalari quyidagicha bo‘ldi (1-rasmga qarang).

Jumladan anketa so‘rovnomasida keltirilgan ba’zi savollarni keltirib o‘tamiz. Anketa so‘rovnomasida keltirilgan 1-savolda sizning fikringizcha, dzyudo sport turi mashg‘ulotlari jarayoniga tekor-kuch qobiliyatlarni rivojlantirish hamda texnik tayyorgarlikni oshirish uchun maxsus simulyatsiya trenajyorlarini kiritish kerakmi? degan savolga murabbiylarning 49,1 foizi “kerak”, 15,4 foizi - “aslida kerak emas”, 35,5 foizi – “ayrimlar uchun bu zarur, boshqalari uchun bu shart emas” degan javobni berishgan. Qolgan so‘rovnoma natijalarida ham so‘raluvchilar o‘z fikr va mulohazalarini keltirib o‘tishgan.

Mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatdiki, dzyudo sport turi bilan shug‘ullanuvchi dzyudochi-qizlarni tayyorlash mobaynida tekor-kuch qobiliyatlari samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar maxsus simulyatsiya trenajyorlaridan foydalangan holda tashkil etish, bugungi kunda talab darajasida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Dzyudochi qizlarning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash, maxsus jismoniy tayyorgarligini sport uskunasi bajariladigan mashqlar orqali qo‘l oyoq, bel mushaklarini rivojlantirish hamda takomillashtirish imkoniyatiga yordam berdi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Sport uskunasida bajariladigan mashqlar majmuasi.

Sport uskunasida bajariladigan o‘quv-mashg‘ulot mashqlarining majmuasi, dzyudochi qizlarni tayyorlash jarayoniga maksimal darajada yo‘naltirilgan bo‘lib, maxsus mashqlar majmuasidan foydalanilgan. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus “ASIS WRESTLING” simulyatsiya trenajyorining maqsadi dzyudochilarning jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, mamlakatimiz dzyudochi qizlarining tekor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratib beradi. Dzyudochi qizlarning musobaqa oldi tayyorgarlik doirasida to‘liq murakkab texnik usullarini shakllantirishda, texnik harakatlarni ketma-ket bajarish hujum samaradorligini oshirish imkonini berdi (3-rasmga qarang).



3-rasm. “ASIS WRESTLING” simulyatsiya trenajyorida maxsus texnik usullarni bajarish jarayoni.

Mazkur simulyatsiya trenajyori orqali murakkab harakatlarni bajarishda tananing barqarorligi va to‘g‘ri holatini saqlab turish qobiliyatini takomillashtirish mumkin. Ushbu uskunadan cheklangan og‘irliklar bilan foydalaniladi. Ya’ni sportchi o‘zining tana vaznining teng yarmini hisobga olgan holda uskunaga og‘irlik toshlari o‘rnatiladi.

**1-jadval
Maxsus “ASIS WRESTLING” simulyatsiya trenajyorida mashg‘ulotlarda bajariladigan maxsus mashqlar qo‘llanilish mexanizmi**

№	Mashqning nomi	Bajariladigan kunlar	Bajarish vaqti	Bajarilishi
1	Mae-kuzushi, Koshi gurumma, O-soto-gari, Seoi nage	Dushanba	Ertalabki mashg‘ulot	Tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish
2	Ippon seoi nage, Tai otoshi, Sode tsuri komi goshi	Seshanba	Ertalabki mashg‘ulot	Aylanma mashg‘ulot orqali
3	O guruma, Uki otoshi, Tsuri komi goshi, Harai goshi	Chorshanba	Kechki mashg‘ulot	Texnik hujum harakatlari samaradorligini oshirish
4	Bellashuv mobaynida usullarni qo‘llash	Juma	Ertalabki va kechki mashg‘ulot jarayonida	Bellashuv potensialini oshirish


Izoh: tezkor-kuch qobiliyati va dzyudoning murakkab texnik usullarini simulyatsiya trenajyorida rivojlantirish.

Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarlik darajasi asimmetriyasini aniqlash uchun sport o‘lchov uskunasi bilan samarali foydalanish hamda kurashning asosiy usullarini bajarish texnik hujum harakatlari natijadorligini oshirish va dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirib berdi.

Biz ushbu maxsus simulyatsiya trenajyorini haftalik mashg‘ulot vaqtida quyidagi tartibda sportchilarga tavsiya qildik. Haftaning dushunba, seshanba, chorshanba

kunlari saralab olingan maxsus texnik usullarini qoʻllagan holda tezkor-kuch tayyorgarligini aylanma mashgʻulot, interval mashgʻulot usuli orqali rivojlantirdik. Haftaning juma kunlarida esa, dzyudochi qizlarning texnik hujum va tezkor-kuch harakatlari samaradorligini oshirish maqsadida bellashuvlar jarayoniga joriy etilib, dzyudochi qizlarning hujum harakatlari asimmetriyasi tahlil qilindi.

Kurash majmualarida bajariladigan maxsus mashqlar jamlanmasining mashgʻulot mobaynida manbalar tahlili, pedagogik kuzatishlar, anketa soʻrovnomalari hamda koʻp yillik tajribaga ega mutaxassislarning qarashlari asosida dzyudo sport turini takomillashtirish bosqichida dzyudo bilan shugʻullanayotgan dzyudochi qizlarni tayyorlash dasturlari ishlab chiqildi hamda ushbu dasturlar yordamida tadqiqot ishlari olib borildi. Bizning fikrimizcha, mazkur keltirilgan maxsus mashqlar dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati hamda mashgʻulotlardagi texnik va tezkor-kuch samaradorligini oshirishga imkon beradi (4-rasmga qarang.)



4-rasm. Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan maxsus mashqlar majmuasi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan maʼlumotlarni inobatga olib, dzyudochi qizlarning oʻquv-mashgʻulot hamda musoboqa faoliyatida Nage-waza va Ne-waza holatidagi murakkab vaziyatlarni inobatga olib mashgʻulot davomida texnik va tezkor-kuch tayyorgarlik nisbatlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan tatamida yakkalikda va juftlikda bajariladigan maxsus mashqlar majmuasi tayyorgarlik davri uchun oʻquv mashgʻulot dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Dzyudo sport turi uchun tatamida bajariladigan maxsus mashqlarning kompleks majmuasi yaratilib, amaliyotga joriy etilgan. Ushbu keltirilgan maxsus mashqlar tatamida maxsus vositalarsiz ham tezkor-kuch tayyorgarligi samaradorligini oshirish orqali texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Yuqorida qayd etilgan tatamida maxsus mashqlarni bajarish dzyudochi qizlarning tezkor-kuch qobiliyati koʻnikmalarini yaxshilashga, bellashuvda texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish vaziyatini namoyon qiladi.

2-jadval

Musobaqa taqvim rejasidan kelib chiqib tajriba guruhining makrosikl mashg'ulotlarida UJT, MJT, TTT ning optimal taqsimlangan dasturi

Davr	Tayyorgarlik					Musobaqa					O'tish		Tayyorgarlik				Musobaqa			O'tish			Tayyorgarlik				
Son	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	
sana	1-3	5-10	12-17	19-24	26-1	3-8	10-15	17-22	24-29	31-5	7-12	14-19	21-26	28-3	5-10	12-17	19-24	26-31	2-7	9-14	16-21	23-28	30-4	6-11	13-18	20-25	
oy	sentyabr					oktyabr					noyabr				dekabr				yanvar				fevral				
UJT	55	45	45	45	40	40	30	20	15	10	5	0	0	30	30	35	35	40	45	55	50	50	45	45	40	40	
MJT	35	40	40	40	45	40	40	40	35	30	25	20	20	35	35	35	35	35	35	35	35	40	40	45	40	45	40
TTT	10	15	15	15	15	20	30	40	50	60	70	80	80	35	35	30	30	25	20	10	10	10	10	15	15	20	
YuM	O'	A	O'	A	O'	A	K-1	A	O'	A	K-1	A	A	O'	K-2	K-2	K-2	O'	O'	O'	A	A	O'	A	O'	A	
Davr	Tayyorgarlik				Musobaqa				O'tish				Tayyorgarlik				Musobaqa				O'tish						
son	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	
sana	27-4	6-11	13-18	20-25	27-1	3-8	10-15	17-22	24-29	1-6	8-13	15-20	22-27	29-3	5-10	12-17	19-24	26-1	3-8	10-15	17-22	24-29	31-5	7-12	14-19	26-31	
oy	mart				aprel				may				iyun				iyul				avgust						
UJT	40	40	30	20	15	10	5	0	35	35	40	45	45	55	50	45	45	40	40	30	20	15	10	5	0	0	
MJT	45	40	40	40	35	30	25	20	35	35	35	35	35	35	40	45	40	45	40	40	40	35	30	25	20	20	
TTT	15	20	30	40	50	60	70	80	30	30	25	20	20	10	10	10	15	15	20	30	40	50	60	70	80	80	
YuM	O'	A	K-1	A	O'	A	K-1	A	O'	K-2	K-2	O'	O'	O'	A	O'	A	O'	A	K-1	A	O'	A	K-1	A	A	

Izoh: YUM-yuklama me'yor; UJT-Umumiy jismoniy tayyorgarlik; MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik; TTT-texnik-taktik tayyorgarlik. Shartli belgilar: K-1 katta yuklama; O' - o'rta yuklama; A-sezilarli yuklama; K-2 kichik yuklama.

Dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik va taktik tayyorgarligi hamda umumiy jismoniy tayyorgarligini o'rganish vaqtidagi o'quv-mashg'ulot jarayonining tuzilishi (2-jadvalga qarang).

Tajriba guruhi uchun o'quv-mashg'ulot dasturini tuzish hamda optimal taqsimlash mazkur ishning ilmiy hisoblangan tadqiqot ma'lumotlariga asoslanadi. K-1 ma'lumotlariga ko'ra, bu mikrosikllarda katta yuklamadir; O'-o'rtacha yuklama; A - sezilarli yuklama; kichik yuklamalar K-2 va turli yo'nalishlarda mashg'ulotni olib borishi oqilona almashinuvda amalga oshirildi. Dzyudo sport turida mutaxassislar orasida dzyudochi qizlarning tayyorgarligini turli vaziyatlarda baholashga urinish ko'rsatkichlari, kun sayin aql bovar qilmas holda oshib bormoqda. Shu bilan birga musobaqa faoliyati harakatlarini ta'minlaydigan mehnat qobiliyati qarashlariga alohida e'tibor berildi.

3-jadvalda tajriba guruhining UJT, MJT hamda TTT taqsimoti ko'rsatilgan. Bu esa malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini rejalashtirish hamda samaradorligini oshirishga imkon beradi. Tajriba guruhini yil davomida tayyorlashda, haftalik siklda umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda texnik-taktik tayyorgarlikning optimallashtirilgan nisbati quyidagi jadvalda keltirilgan. Jadvalda keltirib o'tilgan tajriba guruhining yillik mashg'ulotlarining optimallashtirilgan nisbati quyidagicha izohlandi.

3-jadval

Yil davomida tavsiya etilayogan tajriba guruhini tayyorlashda umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT), texnik-taktik tayyorgarlikning (TTT) optimallashtirilgan nisbati

Tayyorlash turlari	OYLAR											
	sentabr	oktyabr	noyabr	dekabr	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust
UJT	14	26	6	33	15	15	27	8	25	12	27	6
MJT	38	33	26	35	37	42	41	27	35	40	32	26
TTT	48	41	68	32	48	43	32	65	40	48	41	68

Izoh: Bir oylik mashg'ulotning % larda taqsimlanishi; UJT – umumiy jismoniy tayyorgarlik; MJT – maxsus jismoniy tayyorgarlik; TTT – texnik taktik tayyorgarlik.

Tadqiqot va mashg'ulotlar doirasida dzyudoning o'ziga xos uslubini inobatga olishga alohida e'tibor qaralib, dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligi, maxsus jismoniy tayyorgarligi va texnik tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ham foydalanildi. Ixtisoslashgan maxsus simulyatsiya trenajyorlari yordamida to'plangan maxsus mashqlarning ma'lumotlari to'plami asosida murabbiylarga dzyudochi qizlarning jismoniy imkoniyatlari va texnik mahorati haqida ma'lumotlar berildi.

Sport natijalarining o'sishini ta'minlovchi yana bir muhim omillardan biri, bu mashg'ulot jarayonini tashkil etish shakllarini takomillashtirish va integratsiya samaradorligini nazorat qilishdan iboratdir. Tajribada 24 nafar malakali dzyudochi qizlar ishtirok etishdi va tadqiqot ishlari tajriba hamda nazorat guruhlariga taqsimlanib ajratildi.

Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirishga hamda asimmetriyasini tahlil etishga yo‘naltirilgan haftalik dastur

T/r	Hafta kunlari	1-mashg‘ulot (ertalabki)	Bajarish turi	soat	Yuklama shiddati
1.	Dushanba	MJT va “Maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali tezkor-kuch hamda texnik tayyorgarligini Harai goshi, Koshi gurumma, Seoi nage texnik usullari orqali rivojlantirish	Guruhli va juftlikda. Interval mashg‘ulot usuli	2	O‘rta
2.	Seshanba	UJT va “ASIS WRESTLING” sport uskunasida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llashda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik tayyorgarligini O-soto-gari, Tai otoshi usul ari orqali takomillashtirish	Yakka tartibda va juftlikda. Aylanma mashg‘ulot	3	Yuqori
3.	Chorshanba	Sport o‘yinlari	Guruhli va juftlikda o‘yin mashg‘ulot usuli	2	Past
4.	Payshanba	UJT va sport uskunasida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali tezkor-kuch va texnik tayyorgarligini takomillashtirish	Guruhli va yakka tartibda. Aylanma mashg‘ulot	3	Yuqori
5.	Juma	MJT va “ASIS WRESTLING” sport uskunasida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llashda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik tayyorgarligini Ippon seoi nage va Sode tsuri komi goshi yordamida takomillashtirish	Guruhli va juftlikda. Interval mashg‘ulot usuli	2	Yuqori
6.	Shanba	Kross	Guruhli	2	Past
7	Yakshanba	Faol dam olish	Yakka tartibda	14 soat	Jami
T/r	Hafta kunlari	2-mashg‘ulot (kechki)	Bajarish turi	soat	Yuklama shiddati
1.	Dushanba	UJT va sport uskunasida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali tezkor-kuch va texnik tayyorgarligini takomillashtirish	Guruhli va yakka tartibda. Aylanma mashg‘ulot	3	Yuqori
2.	Seshanba	MJT va “Maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali tezkor-kuch hamda texnik tayyorgarligini aniqlash	Guruhli va juftlikda. Interval mashg‘ulot usuli	2	O‘rta
3.	Chorshanba	UJT va “ASIS WRESTLING” sport uskunasida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo‘llashda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik tayyorgarligini Uchi mata, Tsurikomi goshi Mae-kuzushi usullari orqali takomillashtirish	Yakka tartibda va juftlikda. Aylanma mashg‘ulot	2	Yuqori
4.	Payshanba	MJT va “Maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash orqali tezkor-kuch hamda texnik tayyorgarligini rivojlantirish	Guruhli va juftlikda. Interval mashg‘ulot usuli	2	O‘rta
5.	Juma	Bellashuv	Raqib bilan Musobaqa mashg‘ulot usuli	3	Yuqori
6	Shanba	Tiklanish tadbirlari (sauna, massaj, issiq vanna)	Yakka tartibda	2	Past
Jami				28 soat	
7	Yakshanba	Faol dam olish			

Izoh: Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan haftalik mashg‘ulot dasturi keltirib o‘tilgan.

Har bir guruhdagi dzyudochi qizlar, dzyudo bo'yicha yuqori tajribaga ega malakali sportchi qizlar edi.

Dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil etishga yo'naltirilgan haftalik dastur (4-jadvalga qarang).

Mazkur dasturga muvofiq dzyudochi qizlarning mashg'uloti haftasiga 28 soatni, yiliga esa 1456 soatni tashkil etdi va biz ishlab chiqqan dasturni bajarish uchun sarflanadigan vaqti, mazkur vaqt me'yoridan tashqariga chiqmadi hamda sikllarda har kuni (yakshanba kundan tashqari) yakka tartibda va juftlikda o'tkazildi.

Tatamida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasi 12 tadan iborat bo'lib, ularni dushanba seshanba, payshanba kunlari bajarilish rejalashtirildi. Har bir dzyudochi qizlarga mashqni bajarish uchun 2 daqiqadan vaqt ajratildi, 12 ta mashqni bajarishga ikkala kurashchi 24 daqiqadan jami 48 daqiqa sarflandi. Haftalik dasturga "ZK" sport uskunasi hamda "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajyorida bajariladigan maxsus mashqlar ham kiritilgan. Haftaning belgilangan kunida dzyudochi qizlarning jismoniy, maxsus tayyorgarligi asosida texnik va tezkor-kuch qobiliyatlari rivojlantirib borildi. Dushanba kuni ertalab "MJT va Maxsus mashqlar majmuasini qo'llash" bo'yicha mashqlar yakka tartibda va juftlikda 2 soat davomida o'tkazildi, shuning uchun tavsiya etilgan kompleks juftlikda bajariladigan mashqlarni o'z ichiga oladi.

Kunning ikkinchi yarmida mashg'ulotlar kurash gilamida o'tkaziladi. Kurash gilamidagi mashqlar ham ikkiga bo'linadi: maxsus mashqlar va parter holatidagi mashqlar. Shu munosabat bilan biz dzyudo sport turning maxsus o'quv mashg'ulot mashqlari majmuasiga tayanib, Ne-waza holatida bajariladigan mashqlarni ham e'tiborsiz qoldira olmadik.

Dissertatsiyaning **"Dzyudochi qizlarning tayyorgarlik darajasini maxsus simulyatsiya trenajyorlar va maxsus mashqlar asosida texnik hamda tezkor kuch tayyorgarligi asimmetriyasi tahlilini asoslash"** deb nomlangan to'rtinchi bobida dzyudochi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarlik darajasi ishlab chiqqan texnologiyani qo'llash natijasida o'sish dinamikasi hamda musobaqa faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil natijalari bayon qilingan. Tadqiqot davomida olingan natijalar pedagogik tajribaning belgilangan bosqichlarida har xil vazn toifalariga mansub malakali dzyudochi qizlarning MJTni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot yakunida tajriba guruhi dzyudochi qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Tadqiqot boshidagi natijalarning ko'rsatkichlari keltirilgan (5-jadvalga qarang).

Dzyudochini yelkaga olib o'tirib-turish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,99 \pm 2,11$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,82 \pm 2,17$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

Dzyudochi vazniga teng bo'lgan shtangani yotib ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $8,52 \pm 1,02$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $9,03 \pm 1,06$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Uzunlikka sakrash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $2,01 \pm 0,23$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $2,09 \pm 0,19$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

4 metrli arqonga chirmashib chiqish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $2,05 \pm 0,22$ tashkil qildi. 5x2 marta ko'prik holatida aylanishlar mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $27,05 \pm 2,98$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,55 \pm 2,19$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

10 marta ko'prik holatida egilib o'tish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $18,34 \pm 1,87$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $16,01 \pm 1,56$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

5-jadval

Tadqiqot yakunida tajriba guruhidagi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligi o'sishining qiyosiy tahlili (n=24)

T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot yakunida			t	P
		X	σ	V%	X	σ	V%		
1	Dzyudochini yelkaga olib o'tirib-turish (marta)	20,99	2,11	10,05	23,82	2,17	9,11	3,10	<0,01
2	Dzyudochi vazniga teng shtangani yotib ko'tarish (marta)	8,52	1,02	11,97	9,03	1,06	11,74	1,15	>0,05
3	Uzunlikka sakrash (metr).	2,01	0,23	11,44	2,09	0,19	9,09	0,88	>0,05
4	4 metrli arqonga chirmashib chiqish (marta)	2,05	0,22	10,88	2,19	0,21	9,59	1,51	>0,05
5	5x2 marta ko'prik holatida aylanishlar (soniya)	27,05	2,98	11,02	23,55	2,19	9,30	3,13	<0,01
6	10 marta ko'prik holatida egilib o'tishlar (soniya)	18,34	1,87	10,20	16,01	1,56	9,74	3,17	<0,01
7	20 marta O-goshi (soniya)	15,32	1,55	10,12	13,34	1,34	10,04	3,20	<0,01
8	20 marta Ura-nage (soniya)	28,03	3,11	11,10	24,12	2,56	10,61	3,21	<0,01
9	20 marta Seoi-nage (soniya)	15,99	1,68	10,51	14,01	1,29	9,21	3,10	<0,01
10	Dzyudochini belini ushlab parterdan yuqoriga (marta)	20,95	2,39	11,41	24,05	2,23	9,27	3,14	<0,01
11	Turnikda tortilish (marta)	20,13	2,09	10,38	23,16	2,35	10,15	3,19	<0,01

Izoh: X - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish; V% - variatsiya koeffitsienti; t_{kr} - student t qiymati; P - ishonchlilik darajasi.

20 marta O-goshi mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $15,32 \pm 1,55$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $13,34 \pm 1,34$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

20 marta Ura-nage mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $28,03 \pm 3,11$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $24,12 \pm 2,56$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

20 marta Seoi-nage mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tadqiqot guruhida $15,99 \pm 1,68$ iborat bo'ldi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda $14,01 \pm 1,29$ tashkil qildi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

Dzyudochini belini ushlab parterdan yuqoriga ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,95 \pm 2,39$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $24,05 \pm 2,23$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,01$).

Turnikda tortilish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,13 \pm 2,09$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,16 \pm 2,35$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,01$).

Tadqiqot yakunida nazorat guruhidagi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini o'sish ko'rsatkichlari keltirilgan(6-jadvalga qarang).

Jadvaldagi ma'lumotlar natijalariga qarab, tadqiqot boshidagi natijalar:

Dzyudochini yelkaga olib o'tirib-turish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $21,08 \pm 2,08$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $21,88 \pm 2,11$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Dzyudochi vazniga teng bo'lgan shtangani yotib ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $8,82 \pm 1,01$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $8,97 \pm 1,04$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Uzunlikka sakrash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $2,05 \pm 0,22$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $2,07 \pm 0,21$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

4 metrli arqonga chirmashib chiqish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $2,13 \pm 0,21$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $2,16 \pm 0,22$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

5x2 marta ko'prik holatida aylanishlar mashqida tadqiqot boshidagi natija mos ravishda nazorat guruhida $26,95 \pm 2,91$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkich mos ravishda $25,83 \pm 2,13$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

10 marta ko'prik holatida egilib o'tish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $18,29 \pm 1,81$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkich $17,61 \pm 1,49$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

20 marta O-goshi mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $15,28 \pm 1,48$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $14,78 \pm 1,31$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

20 marta Ura-nage mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $27,93 \pm 3,02$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $26,93 \pm 2,61$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

20 marta Seoi-nage mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $15,93 \pm 1,66$ iborat bo'ldi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda nazorat guruhida $14,98 \pm 1,27$ tashkil qildi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

6-jadval

Tadqiqot yakunida nazorat guruhidagi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini o'sish ko'rsatkichlari (n=24)

T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot yakunida			t	P
		X	σ	V%	X	σ	V%		
1	Dzyudochini yelkaga olib o'tirib-turish (marta)	21,08	2,08	9,87	21,88	2,11	9,64	0,89	>0,05
2	Dzyudochi vazniga teng shtangani yotib ko'tarish (marta)	8,82	1,01	11,45	8,97	1,04	11,59	0,34	>0,05
3	Uzunlikka sakrash (metr).	2,05	0,22	10,73	2,07	0,21	10,14	0,21	>0,05
4	4 metrli arqonga chirmashib chiqish (marta)	2,13	0,21	9,86	2,16	0,22	10,19	0,32	>0,05
5	5x2 marta ko'prik holatida aylanishlar (soniya)	26,95	2,91	10,80	25,83	2,13	8,25	1,03	>0,05
6	10 marta ko'prik holatida egilib o'tishlar (soniya)	18,29	1,81	9,90	17,61	1,49	8,46	0,96	>0,05
7	20 marta O-goshi (soniya)	15,28	1,48	9,69	14,78	1,31	8,86	0,83	>0,05
8	20 marta Ura-nage (soniya)	27,93	3,02	10,81	26,93	2,61	9,69	0,83	>0,05
9	20 marta Seoi-nage (soniya)	15,93	1,66	10,42	14,98	1,27	8,48	1,50	>0,05
10	Dzyudochini belini ushlab parterdan yuqoriga (marta)	21,01	2,33	11,09	23,09	2,11	9,14	2,19	<0,05
11	Turnikda tortilish (marta)	21,03	2,01	9,56	23,04	2,31	10,03	2,17	<0,05

Izoh: X - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish; V% - variatsiya koeffitsienti; t_{kr} - student t qiymati; P - ishonchlilik darajasi.

Dzyudochini belini ushlab parterdan yuqoriga ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar nazorat guruhida $21,01 \pm 2,33$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkich mos ravishda $23,09 \pm 2,11$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

Turnikda tortilish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda nazorat guruhida $21,03 \pm 2,01$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,04 \pm 2,31$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

7-jadvalda pedagogik tajriba boshida tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarning maxsus sport uskunasi olingan tezkor-kuch sifati ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tajriba va nazorat guruhiga sinaluvchi qizlarni saralab olish dastlabki test natijalariga ko'ra o'tkazildi. O'ng qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) mashqida dzyudochi qizlarning tadqiqot boshidagi natijalari mos ravishda tajriba guruhida $32,34 \pm 4,17$ ni, nazorat guruhi boshida esa $33,08 \pm 3,97$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ($P > 0,05$) ishonchsiz. Chap qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) mashqida tajriba guruhi tadqiqot boshida $29,95 \pm 3,79$ ni, nazorat guruhida esa $30,99 \pm 3,66$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

7-jadval

Tadqiqot boshida dzyudochi qizlarning sport uskunasi olingan tezkor-kuchga oid ko'rsatkichlari (n=24)

T/r	Nazorat mashqlari	Asimmetriya	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			t	P
			X	σ	V%	X	σ	V%		
1	Qo'lni tirsak qismida uskuna yordamida bukish (kg) (tik turib)	O'ng	32,34	4,17	12,89	33,08	3,97	12,00	0,42	>0,05
		Chap	29,95	3,79	12,65	30,99	3,66	11,81	0,65	>0,05
2	Qo'lning tirsak qismida uskuna yordamida bukish (kg) (o'tirib)	O'ng	28,75	3,59	12,49	29,01	3,63	12,51	0,16	>0,05
		Chap	25,13	3,31	13,17	25,98	3,38	13,01	0,59	>0,05
3	Yuqoridan qo'llar bilan tortib yelka qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan keng ushlab	96,79	10,18	10,52	97,03	11,21	11,55	0,05	>0,05
4	Old tomondan qo'llar bilan tortib, yelka qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan tor ushlab	93,52	10,82	11,57	94,37	11,81	12,51	0,17	>0,05
5	Sport uskunasi dastagini aylantirish (kg)	Ikki qo'lni o'ziga qaratib ushlab	94,98	10,18	10,72	94,02	11,08	11,78	0,21	>0,05
6	Pastdan qo'llar bilan tortish (kg)	Ikki qo'l bilan	91,32	11,48	12,57	93,01	11,55	12,42	0,34	>0,05
7	Oyoqni tizza qismida bukish (kg)	Ikki oyoq bilan	68,01	7,72	11,35	69,88	7,71	11,03	0,56	>0,05
8	Gavdani oldinga ko'tarib bel qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan	10,05	1,22	12,14	10,55	1,43	13,55	0,88	>0,05

Izoh: X - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish; V% - variatsiya koeffitsienti; t_{kr} - student t qiymati; P - ishonchlilik darajasi.

O'ng qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) mashqida dzyudochi qizlarning tadqiqot boshidagi natijalari mos ravishda tajriba boshida

28,75±3,59 ni, nazorat guruhida esa 29,01±3,63 ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$). Chap qo'lining tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) tajriba guruhi boshida 25,13±3,31 ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhi esa 25,98±3,38 ni namoyon etdi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$).

Ikki qo'l bilan keng ushlab yuqoridan qo'llar bilan tortib yelka qismida bukish mashqida tajriba guruhi tadqiqot boshida 96,79±10,18 ni, nazorat guruhi esa 97,03±11,21 ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$). Ikki qo'l bilan tor ushlab old tomondan qo'llar bilan tortib, yelka qismida bukish (kg) mashqida tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilari 93,52±10,82 ni namoyon qilgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari 94,37±11,81 ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$).

Ikki qo'lni o'ziga qaratib ushlagan holda sport uskunasi dastagini aylantirish mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida 94,98±10,18 natijani ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari 94,02±11,08 ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$).

Pastdan ikki qo'llar bilan tortish mashqida tadqiqot boshida tajriba guruhi sinaluvchilari 91,32±11,48 ni, nazorat guruhi sinaluvchilari esa 93,01±11,55 ko'rsatkichni namoyon qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$).

Ikki oyoq bilan oyoqni tizza qismida bukish mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot boshida 68,01±7,72 ni, nazorat guruhi sinaluvchilari esa 69,88±7,71 ni namoyon qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P>0,05$).

Ikki qo'l bilan gavdani oldinga ko'tarib bel qismida bukish mashqida tadqiqot yakunida tajriba guruhining dzyudochi qizlari 10,05±1,22 ko'rsatkichni namoyon qilgan bo'lsa, nazorat guruhining dzyudochi qizlari esa 10,55±1,43 ni tashkil etdi.

8-jadvalda pedagogik tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarning maxsus sport uskunasida olingan tezkor-kuch sifati ko'rsatkichlari keltirilgan.

O'ng qo'lining tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) mashqida dzyudochi qizlarning tadqiqot yakunidagi natijalari mos ravishda tajriba guruhida 40,58±4,15 ni, nazorat guruhi yakunida esa 36,77±3,81 ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ($P<0,05$) ishonlidir. Chap qo'lining tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) mashqida tajriba guruhi tadqiqot yakunida 37,99±3,99 ni, nazorat guruhida esa 34,41±3,62 ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P<0,05$).

O'ng qo'lining tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) mashqida dzyudochi qizlarning tadqiqot yakunidagi natijalari mos ravishda tajriba boshida 35,99±3,95 ni, nazorat guruhida esa 35,99±3,95 ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P<0,05$). Chap qo'lining tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) tajriba guruhi yakunida 32,56±3,61 ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhi esa 29,21±3,29 ni namoyon etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P<0,05$).

Ikki qo'l bilan ushlab yuqoridan qo'llar bilan tortib yelka qismida bukish mashqida tajriba guruhi tadqiqot yakunida 110,91±12,21 ni, nazorat guruhi esa 99,55±11,11 ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ($P<0,05$) ishonchli.

Ikki qo'l bilan tor ushlab old tomondan qo'llar bilan tortib, yelka qismida bukish (kg) mashqida tadqiqot yakunida tajriba guruhi sinaluvchilari 108,87±11,81 ni

namoyon qilgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari $97,64 \pm 11,01$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

Ikki qo'lni o'ziga qaratib ushlagan holda sport uskunasi dastagini aylantirish mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot yakunida $107,92 \pm 11,71$ natijani ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhi sinaluvchilari $96,81 \pm 11,01$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

Pastdan ikki qo'llar bilan tortish mashqida tadqiqot yakunida tajriba guruhi sinaluvchilari $102,76 \pm 12,77$ ni, nazorat guruhi sinaluvchilari esa $99,67 \pm 11,41$ ko'rsatkichni namoyon qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Ikki oyoq bilan oyoqni tizza qismida bukish mashqida tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot yakunida $76,88 \pm 7,92$ ni, nazorat guruhi sinaluvchilari esa $74,79 \pm 7,89$ ni namoyon qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

8-jadval

Pedagogik tajriba yakunida dzyudochi qizlarning sport uskunasida olingan tezkor-kuchga oid ko'rsatkichlari (n=24)

T.r	Nazorat mashqlari	Asimmetriya	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			t	P
			X	σ	V%	X	σ	V%		
1	Qo'lni tirsak qismida uskuna yordamida bukish (kg) (tik turib)	O'ng	40,58	4,15	10,23	36,77	3,81	10,36	2,24	<0,05
		Chap	37,99	3,99	10,50	34,41	3,62	10,52	2,20	<0,05
2	Qo'lni tirsak qismida uskuna yordamida bukish (kg) (o'tirib)	O'ng	35,99	3,95	10,98	32,44	3,59	11,07	2,20	<0,05
		Chap	32,56	3,61	11,09	29,21	3,29	11,26	2,27	<0,05
3	Yuqoridan qo'llar bilan tortib yelka qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan keng ushlab	110,91	12,21	11,01	99,55	11,11	11,16	2,28	<0,05
4	Old tomondan qo'llar bilan tortib, yelka qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan tor ushlab	108,87	11,81	10,85	97,64	11,79	12,07	2,23	<0,05
5	Sport uskunasining dastagini aylantirish (kg)	Ikki qo'lni o'ziga qaratib ushlab	107,92	11,71	10,85	96,81	11,01	11,37	2,29	<0,05
6	Pastdan qo'llar bilan tortish (kg)	Ikki qo'l bilan	102,76	12,77	12,43	99,67	11,41	11,45	0,59	>0,05
7	Oyoqni tizza qismida bukish (kg)	Ikki oyoq bilan	76,88	7,92	10,30	74,79	7,89	10,55	0,62	>0,05
8	Gavdani oldinga ko'tarib bel qismida bukish (kg)	Ikki qo'l bilan	11,51	1,51	13,12	11,23	1,22	10,86	0,47	>0,05

Izoh: X - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish, V% - variatsiya koeffitsienti, t_{kr} - student t qiymati, P - ishonchlilik darajasi.

Ikki qo‘l bilan gavdani oldinga ko‘tarib bel qismida bukilish mashqida tadqiqot yakunida tajriba guruhining dzyudochi qizlari $11,51 \pm 1,51$ ko‘rsatkichni namoyon qilgan bo‘lsa, nazorat guruhining dzyudochi qizlari esa $11,23 \pm 1,22$ ni tashkil etdi.

Tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarining tadqiqot yakunida tezkor-kuch tayyorgarligiga oid ko‘rsatkichlar statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$). Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarining tezkor-kuch tayyorgarligiga oid 8 ta ko‘rsatkichdan 7 tasida ishonchlilik darajasini ko‘rsatdi ($P < 0,05$).

Pedagogik tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarining “ASIS WRESTLING” simulyatsiya trenajyorida texnik usullarining asimmetriya ko‘rsatkichlari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi.

Pedagogik tajribaning boshida asimmetriya ko‘rsatkichlari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhidan olingan natijalarning o‘rtacha ko‘rsatkichlarini qiyoslaganda, Styudent t-mezoni bo‘yicha dzyudochi qizlarning texnik tayyorgarligini tavsiflovchi barcha ko‘rsatkichlarda statistik tafovutlar ishonchli emasligi kuzatildi.

9-jadvalda berilgan Pedagogik tajriba boshida va yakunida tajriba va nazorat guruhi dzyudochi qizlarining ma‘lumotlarning qiyosiy tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, “Sode tsuri komi goshi” texnik usullarini chap tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi chap tomonga $30,13 \pm 2,39$ ni, nazorat guruhida esa $29,71 \pm 2,27$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Tajriba yakuniga kelib, “Sode tsuri komi goshi” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi chap tomonga $33,85 \pm 2,35$ ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $31,72 \pm 2,24$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Sode tsuri komi goshi” texnik usullarini o‘ng tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi o‘ng tomonga $23,79 \pm 2,33$ ni, nazorat guruhida esa $24,01 \pm 2,16$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$). Tajriba yakuniga kelib, “Sode tsuri komi goshi” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi o‘ng tomonga $26,26 \pm 2,28$ ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $24,12 \pm 2,01$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Harai goshi” texnik usullarini chap tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi chap tomonga $28,99 \pm 2,81$ ni, nazorat guruhida esa $29,12 \pm 2,96$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$). Tajriba yakuniga kelib, “Harai goshi” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi chap tomonga $30,01 \pm 2,67$ ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $29,82 \pm 2,92$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Harai goshi” texnik usullarini o‘ng tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi o‘ng tomonga $21,01 \pm 2,03$ ni, nazorat guruhida esa $21,59 \pm 2,01$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Pedagogik tajriba boshida va yakunida dzyudochi qizlarning “ASIS WRESTLING” simulyatsiya trenajyorida texnik usullar asimmetriyasining qiyosiy tahlili (n=24)

T/r	Dzyudochi qizlarning trenajyorida asimmetriya ko'rsatkichlari	A	Tajriba boshida				t	P	Tajriba yakunida				t	P
			TG		NG				TG		NG			
			X	σ	X	σ			X	σ	X	σ		
1	“Sode tsuri komi goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	Chap	30,13	2,39	29,71	2,27	0,885	>0,05	33,85	2,35	31,72	2,24	2,176	<0,05
2	“Sode tsuri komi goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	O'ng	23,79	2,33	24,01	2,16	0,649	>0,05	26,26	2,28	24,12	2,01	2,335	<0,05
3	“Harai goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	Chap	28,99	2,81	29,12	2,96	0,743	>0,05	30,01	2,67	29,82	2,92	0,159	>0,05
4	“Harai goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	O'ng	21,01	2,03	21,59	2,01	0,892	>0,05	24,89	2,57	22,33	2,11	2,553	<0,05
5	“Uki goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	Chap	28,95	2,79	29,29	2,75	0,764	>0,05	33,02	2,44	30,01	2,71	2,738	<0,05
6	“Uki goshi” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	O'ng	12,08	1,55	12,58	1,46	0,693	>0,05	14,56	1,42	13,03	1,29	2,645	<0,05
7	“Seoi-nage” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	Chap	25,11	2,57	26,01	2,49	0,725	>0,05	30,01	2,23	27,07	2,19	3,120	<0,01
8	“Seoi-nage” usullarini to'g'ri bajarish asimmetriyasi	O'ng	36,58	4,22	37,39	4,39	0,852	>0,05	43,12	4,14	39,02	4,28	2,284	<0,05

Izoh: Asimmetriya – tomonlarning farqi; X - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish, t_{kr} – student t qiymati; P – ishonchlilik darajasi.

Tajriba yakuniga kelib, “Harai goshi” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi o‘ng tomonga $24,89 \pm 2,57$ (%) ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $22,33 \pm 2,11$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Uki goshi” texnik usullarini chap tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi chap tomonga $28,95 \pm 2,79$ (%) ni, nazorat guruhida esa $29,29 \pm 2,75$ (%) ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Tajriba yakuniga kelib, “Uki goshi” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi chap tomonga $33,02 \pm 2,44$ (%) ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $30,01 \pm 2,71$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Uki goshi” texnik usullarini o‘ng tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi o‘ng tomonga $12,08 \pm 1,55$ (%) ni, nazorat guruhida esa $12,58 \pm 1,46$ ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$). tomonga $14,56 \pm 1,42$ (%) ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $13,03 \pm 1,29$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

“Seoi-nage” texnik usullarini chap tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi chap tomonga $25,11 \pm 2,57$ (%) ni, nazorat guruhida esa $26,01 \pm 2,49$ (%) ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$). Tajriba yakuniga kelib, “Seoi-nage” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhida chap tomonga $30,01 \pm 2,23$ (%) ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $27,07 \pm 2,19$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,01$).

“Seoi-nage” texnik usullarini o‘ng tomonga to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba boshida tajriba guruhi o‘ng tomonga $36,58 \pm 4,22$ (%) ni, nazorat guruhida esa $37,39 \pm 4,39$ (%) ni tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$). Tajriba yakuniga kelib, “Seoi-nage” usullarini to‘g‘ri bajarish asimmetriyasi tadqiqot natijalariga mos ravishda tajriba guruhi o‘ng tomonga $43,12 \pm 4,14$ (%) ni, tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa $39,02 \pm 4,28$ ni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$).

10-jadvalda berilgan ma’lumotlarning qiyosiy tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, tajriba va nazorat guruhi o‘rtacha qiymatlarida pedagogik tajriba oxiriga kelib asimmetriya ko‘rsatkichlaridagi jiddiy o‘sish ko‘zga tashlandi. Natijalar ham biz taklif etgan usuliyatning ijobiy va samarali ta’sirini namoyish etadi ($P < 0,05$).

XULOSALAR

Dissertatsiya ishi bo‘yicha dzyudochi qizlarning sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishga oid adabiyot manbalarni o‘rganish, olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, o‘tkazilgan tadqiqotlar, pedagogik testlash va pedagogik tajriba natijalarining tahlilidan quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Dzyudo sport turida dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati va o‘quv-mashg‘ulot jarayonlariga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish hamda umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy

tayyorgarligini nazorat qilish va baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, biroq, hozirgi kunda spotchi qizlarni tayyorlash tizimida maxsus simulyatsiya trenajyorlarida bajariladigan mashqlar hamda yangi metodikalarni, dzyudochi qizlarning tayyorgarlik davrlariga yangicha yondashuv va haftalik mashg'ulotlari dasturiga kiritish shu bilan birga yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli ishlar olib borilmagan. Shu bilan birga, dzyudo sportida mavjud bo'lgan zamonaviy sharoitda innovatsion usullarni joriy etish samarali o'quv mashg'ulot jarayonida zamonaviy ilmiy yondashuvlarga asoslangan dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini innovatsion uslublar asosida shakllantirishga kuchli ehtiyoj mavjud ekanligini aniqlashga imkon yaratdi.

2. Tadqiqot davomida dzyudochi qizlarning mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch tayyorgarlik darajasi asimmetriyasini oshirish uchun maxsus sport uskunasidan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Tajriba guruhidagi dzyudochi qizlarning tezkor-kuch, ko'rsatkichlarining o'sishini tahlil qilish natijalariga ko'ra, nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan tajriba guruhida 8 ta ko'rsatkichdan 7 tasida ishonchli o'sishi kuzatildi.

3. Pedagogik eskperiment yakunida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra dzyudochi qizlarning kuchli va zaif tomonlarini hamda jismoniy tayyorgarligini aniqlashga qaratilgan sport uskunasi mashqlarni takror bajarish hisobiga dzyudochi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasi imkoniyati tadqiqot yakunida samarali ekanligi isbotlandi. Jumladan, student t-mezoni ko'rsatkichlari va ahamiyatlilik darajasiga ko'ra o'ng qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) $40,58 \pm 4,15$ ($P < 0,05$); chap qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (tik turib) $37,99 \pm 3,99$ ($P < 0,05$); o'ng qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) $35,99 \pm 3,95$ ($P < 0,05$); chap qo'lning tirsak qismini uskuna yordamida bukish (o'tirib) $32,56 \pm 3,61$ ($P < 0,05$) tadqiqot yakunida tajriba guruhining ko'rsatkichlari yaxshilanib, ishlab chiqilgan texnologiyaning samaradorligini ko'rsatdi.

4. Dzyudochi qizlarning kurashning texnik hujum harakatlarini bajarish hamda tezkor-kuch tayyorgarligi samaradorligini oshirish maqsadida yo'naltirilgan o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil etishda maxsus "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajyori orqali dzyudo sport turining asosiy mashqlaridan foydalanib, dzyudochi qizlarning asimmetriyasi olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra 12% ga yaxshilandi.

5. Dzyudochi qizlarning mashg'ulot jarayonini samarali boshqarish va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish maqsadida Nage-waza va Ne-waza holatidagi murakkab vaziyatlarni inobatga olib, tatamida bir vaqtning o'zida jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda texnik va tezkor-kuch sifatini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan yakkalikda hamda juftlikda bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini qo'llash, dzyudochi qizlarning bellashuv potensialini oshirishda maxsus mashqlarni qo'llash hisobiga maxsus jismoniy tayyorgarligi 15% ga yaxshilangan.

6. Dzyudo sport turida texnik harakatlar samaradorligini oshirish metodikasi ishlab chiqilib, malakali dzyudochi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish va texnik harakatlari samaradorligini oshirishga doir yangi maxsus mashqlar majmualari yillik sikl davomida mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etildi. Musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida dzyudochi qizlarning texnik harakatlarini individuallashtirish ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan usulning samaradorligi tezkor-kuch tayyorgarligini texnik harakatlarda yanada

samarali namoyon bo'lishi aniqlandi. Natijada, Xalqaro musobaqalarda 1 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza; O'zbekiston chempionatlarida esa 1 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritishgan va tadqiqot guruhi dzyudochi qizlari sovrindorlar qatoridan joy egallashgan.

7. Dzyudochi qizlarning mashg'ulotini tezkor tahlil qilish va "Maxsus jismoniy mashqlar kompleksi" dasturidan foydalanish natijasida dzyudochi qizlar raqiblarining kuchli va zaif tomonlar asimmetriyasi haqidagi ma'lumotlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birgalikda, tajriba guruhi dzyudochi qizlarining zaif tomonlarini bartaraf etish hamda doimiy ravishda ma'lumotlar bilan ta'minlash imkoni 18 % ga oshganligi aniqlandi.

8. Tayyorgarlik bosqichida malakali dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligi o'sish ko'rsatkichlari tadqiqot yakunida tajriba guruhi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha olingan 11 ko'rsatkichdan 8 tasida ishonchlilik darajasi yuqori ekanligi aniqlanib, statistik ishonchlilik darajasi $P < 0,05$ ga teng bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi ijobiyligidan dalolat berdi.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqotning ko'p qirraliligi, uni o'rganish jarayonida aniqlangan qonuniyatlarning ahamiyati sport mashg'ulotlari murakkab, doimiy o'zgarib turadigan, ilmiy va uslubiy yordamni talab etadigan pedagogik jarayon ekanligini hisobga olgan holda bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Malakali dzyudochi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlashda, biz tomonimizdan tavsiya etilgan maxsus mashqlar majmuasini o'quv-mashg'ulotlariga joriy qilinishi, dzyudochi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini namoyon bo'lishi bo'yicha aniq ma'lumotlar olishga imkon beradi.

2. O'quv mashg'ulot jarayonlarini olib borish, usullarni birlashtirish, turli xil texnik tayyorgarlik usullari hamda mashqlarning bajarilishi va tomonlarning asimmetriya ko'rsatkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

3. Dzyudochi qizlarning haftalik sikl mashg'ulotlari rejasida "ASIS WRESTLING" simulyatsiya trenajyoridan haftada 2 marotabadan kam bo'lmagan holda foydalanish, sport uskunasi va tatamida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini haftalik dasturlar asosida belgilangan me'yorlarda qo'llash, tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish hamda texnik tayyorgarligini takomillashtirishga ijobiy samara beradi va dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish imkonini beradi.

4. Turli vazn toifasidagi yuqori malakali dzyudochi qizlarning hujum harakatlarining texnik arsenalini takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulot jarayonining mazmunini belgilashda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Dzyudochi qizlarning texnik harakatlarini operativ nazorat qilishda dzyudochilarga o'zlarining texnik harakatlar to'g'risida ma'lumot berib, mashg'ulotlar, nazorat bellashuvlarida raqiblarining kuchli va zaif tomonlarini ajratib ko'rsatishda mezosikl majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Dzyudochi qizlarda maxsus simulyatsiya trenajyorlar va mashqlardan foydalanish asosida tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasini

mashg'ulotlar jarayoniga joriy etish va keng tarqalgan maxsus mashqlarning mazmunini o'z ichiga qamrab oladi. Qo'llangan uslublar bilan birgalikda maxsus trenajyorlar, sport uskunalari va mashqlar majmuasidan mashg'ulotlar jarayonida haftasiga 3 marotabadan kam bo'lmagan holda foydalanish yuqori samara beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ИСМАТУЛЛАЕВА САНГИНА РАВШАН КИЗИ

**АНАЛИЗ АСИММЕТРИИ ТЕХНИЧЕСКОЙ И СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ
ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-ДЗЮДОИСТОК НА СПЕЦИАЛЬНОМ
ИМИТАЦИОННОМ ТРЕНАЖЕРЕ**

**13.00.04 – Теория и методика физической культуры, спортивных тренировок,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик-2025

Тема диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/Ped6740.

Докторская диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzdjtsu.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Адилов Сарвар Кахрамонович**
Доктор педагогических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: **Дадабаев Одилжон Жалолидинович**
Доктор педагогических наук (DSc), доцент

Алиев Искандар Бахромович
Кандидат педагогических наук, профессор

Ведущая организация: **Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней под номером DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта (Адрес: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортсменов, дом 19. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. малый зал заседаний “Дворца культуры” Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 2 этаж, малый зал заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за _____). Адрес: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортсменов, дом 19, Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(протокол реестра рассылки за № _____ от «___» _____ 2025 года)

Р.М.Маткаримов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), доцент

А.Н.Шопулатов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Дзюдо, как вид спорта, активно развивается в мире благодаря сильной конкуренции среди стран с развитым уровнем дзюдо. Особая популярность женского дзюдо возникла при участии женщин в Олимпийских играх. Наличие конкуренции среди девушек-дзюдоисток в мировом дзюдо приводит к необходимости анализа показателей соревновательной деятельности, поиска путей развития и повышения эффективности скоростно-силовой подготовки. В ведущих странах мира в качестве одного из основных факторов высокого спортивного результата среди дзюдоисток является наличие стратегии подготовки и системное управление тренировочным процессом. В настоящее время одной из важнейшей задачей для дальнейшего развития женского дзюдо является целевая подготовка девушек-дзюдоисток к соревнованиям путем анализа передовых методов и данных на основе анализа спортивных показателей.

В мировом дзюдо результаты передового опыта, полученные путем наблюдения и анализа соревнований, внедряются в учебно-тренировочный процесс. Основные направления тренировочного процесса составляют скоростно-силовую, техническую, психологическую и функциональную подготовки девушек-дзюдоисток. Осовременно, в дзюдо все больше запрос на эффективные методы, способствующие улучшению результатов. Использование в спортивных тренировках современных методов и передовых технологий дает возможность изучения проблемы асимметрии скоростно-силовой подготовки в дзюдо. Проводятся научные исследования по разработке, научно-теоретическому обоснованию и нормированию в борьбе дзюдо оптимальных вариантов системы тренировочных нагрузок циклов многолетней подготовки для квалифицированных девушек-дзюдоисток. Однако, при совершенствовании асимметрии технической и скоростно-силовой подготовки в дзюдо возникает необходимость разработки методики обучения атакующим техническим действиям, требующим высокоинтенсивной скоростно-силовой способности, основанной на системе специальных упражнений.

В республике проблемы спорта, воспитание высоко конкурентоспособных на международной арене, высококвалифицированных девушек-дзюдоисток и подготовка высокопрофессиональных кадров, имеющих научно-практический потенциал, становится приоритетным направлением государственной политики. Вследствие проведения в нашей стране целенаправленных реформ особое внимание уделяется развитию физической культуры и спорта. Определены такие задачи, как “Организация научно-комплексных лабораторий для спортсменов сборных команд по видам спорта, внедрение в процесс подготовки передовых инновационных технологий”¹. Возникает также необходимость проведения исследований, направленных на процесс подготовки к соревнованиям девушек-дзюдоисток и отбор методов, определяющих индивидуальные особенности

¹. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5924 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» от 24 января 2024 года.

спортсменов. Важными направлениями исследований являются: утверждение учебно-тренировочных программ, анализ показателей соревновательной деятельности девушек-дзюдоисток, исследования уровня физической и технической подготовки путем использования специального спортивного оборудования. Кроме того, возникает необходимость использования специального спортивного оборудования при оптимизации учебно-тренировочных программ, оперативном анализе показателей соревновательной деятельности девушек-дзюдоисток, анализе асимметрии физической, технической и скоростно-силовой подготовки квалифицированных девушек-дзюдоисток. Вместе с этим, в данной проведенной исследовательской работе на основе анализа соревновательной деятельности обозначена необходимость проведения научно-исследовательских работ, связанных с педагогическими наблюдениями по анализу асимметрии технической и скоростно-силовой подготовки девушек-дзюдоисток путем использования специального тренажера.

Исследование данной диссертации в определенной степени служит реализации задач, реализуемых в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-3196 «О широком привлечении спортсменов Узбекистана, достигших высоких результатов на престижных международных спортивных соревнованиях, к общественной и спортивной деятельности, а также поощрении спортсменов и их тренеров» от 10 августа 2017 года, №ПП-4877 «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в сфере физической культуры и спорта» от 3 ноября 2020 года, №ПП-286 «О мерах по дальнейшему развитию вида спорта дзюдо» от 20 июня 2022 года и других нормативно-правовых документах данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование проведено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики, связанными с I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации при социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В процессе изучения и анализа научно-методической литературы по сегодняшнему развитию дзюдо и других видов спортивной борьбы в нашей стране можно видеть, что в научно-методических работах целого ряда авторов приведены проблемы развития технико-тактической и скоростно-силовой подготовки борцов, проблемы нового научно-теоретического подхода к их учебно-тренировочному процессу. Ученые нашей республики А.Н.Абдиевым, Н.Н.Азизовым, З.А.Бакиевым, Л.П.Югай, Ж.М.Иштаевым, Ф.А.Керимовым, О.Ж.Дадабаевым, К.Н.Муродовым, С.Э.Кодировым, С.К.Адиловым, И.Б.Алиевым, Дж.Ю.Ташназаровым, Ш.Ш.Газиевым в научно-методических работах в основном совершенствовали

современные критерии, направленные на контроль системы многолетней подготовки спортсменов.²

В результате изучения научно-методической литературы ведущих ученых стран Содружества независимых государств можно констатировать, что Г.С.Туманян, В.Ю.Верхошанский, А.И.Ткаченко, Ю.В.Муханов, Н.А.Федяев, В.И.Лях в своих научно-методических работах представили теоретические и практические рекомендации по развитию физических качеств спортсменов.³

Наряду с этим в результате изучения научно-методической литературы зарубежных ученых стало ясно, что ими были проведены научные исследования по анализу и развитию скоростно-силовой асимметрии спортсменов. Вместе с этим в работах целого ряда авторов подчеркивается необходимость использования тренировочных средств и нагрузок при физической и технико-тактической подготовке борцов. В частности, об этом говорится в научно-методических работах D.Sale, G.Wang, H.Liou, P.Liou, W.Pulkkinen, L.Monteiro, De.Cree, L.Jones, M.Baić, N.Trajković, D.Djordjevic, M.Stankovic, D.Pekas.⁴

